Loyiha nima va kim uchun

Suv kerak — ichimlik suvi etkazib berish bilan shug‘ullanuvchi bizneslar uchun mo‘ljallangan boshqaruv tizimi.

Maqsad:
buyurtmalarni qabul qilish → kurerga biriktirish → etkazib berish jarayonini nazorat qilish → hisob-kitob va kassa hisobini yuritish.

Ushbu qo‘llanmaning asosiy maqsadi — tizim interfeysi orqali bajariladigan amallarni oddiy, tushunarli va aniq shaklda tushuntirishdan iborat. Barcha bo‘limlarda faqat amaliyotda kerak bo‘ladigan malumotlar keltiriladi.

Suv kerak loyihasi strukturasi haqida

Qo‘llanma rollar bo‘yicha tuzilgan ilova mavjud bo‘lib, har bir foydalanuvchi o‘z rolidan kelib chiqib faqat o‘ziga tegishli ilovalar orqali ishlaydi.

Boss ilovasi — suv etkazib berish biznes egasi (yoki rahbari) uchun mo‘ljallangan boshqaruv ilovasi.

Ushbu ilovada:

- menejer va kurerlar faoliyatini nazorat qilish;
- ularni tayinlash yoki bo‘shatish;
- ish kunlarini belgilash;
- tizim hisobi va kassa hisobini yuritish
  kabi funksiyalar mavjud.

Boss menejer orqali yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri (menejersiz) kurerlar bilan ishlashi mumkin. Agar biznes hajmi kichik bo‘lsa, bossning o‘zi ham kurer sifatida faoliyat yuritishi mumkin.

Boss ilovasidan foydalanish tartibi quyida batafsil tushuntiriladi.

Menejer ilovasi

Menejer ilovasi — boss tomonidan tayinlangan foydalanuvchi uchun mo‘ljallangan.

Menejer:

- muayyan biznes nuqtasiga biriktiriladi;
- shu nuqtaning kassa hisobini;
- kurerlar bilan suv va bo‘sh taralar hisobini;
- boss bilan o‘zaro hisob-kitoblarni
  yuritadi.

Agar biznesda bir nechta nuqtalar mavjud bo‘lsa, ushbu tizim har bir nuqta hisobining alohida yuritilishini taminlaydi va hisob-kitoblarda chalkashlikning oldini oladi.

Menejer kurer tayinlashi yoki bo‘shatishi mumkin. Shuningdek, menejer ilovasi orqali o‘zi ham kurerlik faoliyatini amalga oshirishi mumkin.

Kurer ilovasi

Kurer ilovasi — boss yoki menejer tomonidan tayinlangan foydalanuvchi uchun mo‘ljallangan.


Ushbu ilovada:

- kurerga biriktirilgan buyurtmalar;
- etkazilgan va etkazilmagan buyurtmalar hisobi;
- kassa hisobi;
- suv va taralar hisobi
  yuritiladi.


Kurer ilovasidan foydalanish tartibi quyida batafsil bayon qilinadi.

Boss ilovasi

Ro‘yxatdan o‘tish:




Til tanlash:
Ushbu sahifada o‘zingizga qulay bo‘lgan tilni tanlang.



Kirish yoki ro‘yxatdan o‘tish:
Agar siz avval ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lsangiz va ID hamda parolingiz mavjud bo‘lsa, tegishli maydonlarni to‘ldirib “Kirish” tugmasini bosing.

Agar hali ro‘yxatdan o‘tmagan bo‘lsangiz, “Ro‘yxatdan o‘tish” tugmasini bosib, keyingi sahifaga o‘ting.



Malumotlarni kiritish:

Bu sahifada biznes egasi o‘z malumotlarini kiritadi.

Biznes nomingizni kiriting qismida siz biznesingizga berilgan nomni yoki brend nomingizni kiritishingiz mumkin.

Masalan: “Zilol suv”, “Obi zam-zam” yoki davlat ro‘yxatdan o‘tgan nomni kiritishingiz mumkin.

Viloyatni tanlang qismida faoliyat yuritayotgan viloyatni

tanlang.

Shahar yoki tuman qismida faoliyat yuritayotgan yashash hududingiz shahar yoki hududni tanlang.

Telefon raqami qismida telefon raqamingizni kiriting.


Promokod qismida agent promokodi (ixtiyoriy) kiritiladi.


Malumotlar to‘ldirilib “Davom etish” tugmasi bosiladi.

ID va parolni olish:

«Davom etish» tugmasi bosilganda «@suv_kerak_bot» boti sizga quyidagi ko‘rinishda xabar yuboradi:

Xabarda tizimga kirish uchun ID va parol beriladi. Ushbu ID va parol ustiga bir bosishda nusxa olib tizimga kirish sahifasiga o‘tib tegishli xonalarga ID va parolni kiriting va “Kirish” tugmasini bosib tizimga kiring.





Asosiy menyu



Asosiy menyuning yuqori qismida shaxsiy hisob malumotlar bo‘lib:

Tizimdagi hisob - bu sizning biznesingiz tizimdagi hisob qoldig‘ini miqdorini ko‘rsatadi.

Kassa qoldig‘i – bu sizning biznes kassa qoldig‘i miqdorini bildiradi.

Bajarilmagan – sariq randagi ko‘rsatkich bugun bajarilmagan (hali bajarilishi kerak bo‘lgan) buyurtmalar sonini anglatadi. Yani buyurtmalar bor, lekin bajarilmagan buyurtmalar soni.

Bugun bajarilgan – yashil rangdagi ko‘rsatkich bugun bajarilgan buyurtmalar sonini anglatadi.

Ish kuni - to‘g‘risidagi yopiq va **ochiq** ko‘rsatkichlar bu asosiy parametr bo‘lib, sizning suv etkazish biznesingiz ish kuni faoliyatini yopiq yoki **ochiq**, yani ayni kunda ish kuni faoliyati ishlash yoki ishlamasliklarizni bildiradi.

!!! Etibor bering, agar shu parametrni yopiq qoldirsangiz, siz tizimda ko‘rinmaysiz va mijozlardan buyurtma qabul qila olmaysiz. Tizim shunchaki sizni shu kuni faoliyatida emas deb tushunadi. Bu parametrni profilaktika yoki dam olish kunlari yopiq qoldirishingiz mumkin. Qolgan ish kunlari bu parametr ochiq bo‘lishi shart!!!




Buyurtmalar

Buyurtmalar bo‘limida siz buyurtmalar bajarilmagan buyurtmalar, bugun bajarilgan buyurtmalar, buyurtma yaratish, bajarilgan buyurtmalar davriy hisobotlari va kurerlarga berilgan suvlar davriy hisoboti malumotlarini olishingiz mumkin.




Bajarilmagan buyurtmalar:

Bajarilmagan buyurtmalar yozuvi ustiga bosilganda bajarilmagan buyurtmalar soni miqdori va jami etkazib berilishi kerak bo‘lgan suvlar soni miqdori ko‘rinadi.



Buyurtmalarni xaritada ko‘rish:


“Buyurtmalarni xaritada ko‘rish” yozuvi ustiga bosilganda interfeysda xarita ochiladi va xaritada sizning bajarishingiz kerak bo‘lgan buyurtmalar ikonkasida ko‘rinadi va ustki qismida buyurtma raqami ko‘rinadi. Bu ikonka ustiga bosilsa xaritani yuqori qismida suvni etkazib berish manzili, oraliq masofa va etkazib berish suv soni ko‘rsatiladi. Bu funksiya asosan kurerlar funksiyasiga xos bo‘lib, biznes hajmi katta bo‘lmagan suv etkazuvchilar o‘zlari kurerlik qilish rejasi bo‘lganlar uchun qulay bo‘lib, shu ilovani o‘zida suv tarqatish (kurerlik xizmati)ni kurer tayinlamay amalga oshirishlari mumkin.




Buyurtmani bajarish uchun qabul qilish:

Kurer eng yaqin buyurtma ikonkasi ustiga bosadi va masofa setkazib berish suv soni va manzilini kuradi.


Bu bilan hali buyurtmani qabul qilmagan bo‘ladi. “Ketdik” tugmasi ustiga bosil-ganda buyurtma qabul qilingan hisoblana-di, ushbu buyurtma xaritada boshqa kurerlarga ko‘rinmaydi. Shu onda mijozga buyurtma kurer tomonidan qabul qilingani va kurer yo‘nalish xarakati onlayn translokasiyasi ko‘rina boshlaydi. Buyurtma jarayoni bajarilmaguncha ushbu Kurer yangi buyurtma ololmaydi va buyurtma “yo‘lda” statusida kurerga berkitilgan hisoblanadi.





Manzilga kelish

Manzilga kelganda ushbu rasmdagi interfeysi avtomatik namoyon bo‘ladi. Agar avtomatik ushbu interfeys chiqamasa, ushbu rasmdagi “Manzilga keldim” knopkasini bosing!



Suvni tushirish nuqtasini topish:


Rasmdagi suvni tushirish nuqtasini aniq topish uchun izohda kelgan aniq ko‘rsatma orqali topish mumkin. Agar shunda ham topish imkoni bo‘lmasa, unda “Manzilni topmadim, mijozga qo‘ng‘iroq qilaman” tugmasi bosiladi va mijozga telefon raqamiga avtomatik sim qoqiladi.

Buyurtma to‘lovlarini qabul qilib olish:




«Manzilni topdim» tugmasi bosilganda tizim kurerdan «Buyurtmani bajardingizmi?» so‘rovi yuboradi. Bunda kurer suvni topshirgani yoki yo‘qligi nazarda tutiladi. Suv topshirilgan bo‘lsa “Ha” tugmasi bosiladi va interfeysda to‘lov malumotlar chiqadi.

Agar to‘lov onlayn karta orqali to‘langan bo‘lsa “Jami:” to‘lov summasi “0” nol so‘mda chiqadi. Agar kurer naqd to‘lashda buyurtma bergan bo‘lsa “Jami:” to‘lovda to‘lov summasi chiqadi. Kurer ko‘rsatilgan summani mijozdan qabul qilib oladi va **“To‘lovni qabul qildim”** tugmasini bosadi. Buyurtma etkazish jarayoni shu bilan tugaydi. Kurer xaritadan keyingi buyurtmani bajarish uchun qabul qilishi mumkin. +





Bugun bajarilgan buyurtmalar: “Bugun bajarilgan buyurtmalar” yozuvi ustiga bosilganda, bugun bajarilgan buyurtmalar soni va etkazib berilgan suvlar soni miqdori ko‘rsatiladi.



Davomi(pastidan) shu buyurtmalar batafsil malumotlari ko‘rsatiladi.



Buyurtma yaratish: Tizimda buyurtma avtomatik “@suv_kerak_bot” bot orqali yoki Suv kerak mijoz ilovasi orqali olinadi. Lekin odatda buyurtmani telefonda yoki maxsus telegram guruhlarda ham buyurtmalar qabul qilinishi mumkin. Mana shunday holatlar uchun maxsus “Buyurtma yaratish” tugmasi bo‘lib, bu orqali boss yoki menejer qo‘lda buyurtma yaratishi mumkin. Buning uchun “Buyurtma yaratish” tugmasiga bosiladi va ushbu interfeysdagi so‘ralgan quyidagi malumotlarni kiritadi:



Buyurtmachi ID raqami - bu erda buyurtmachining telegram id raqami kiritiladi. Telegram id raqamini agar buyurtma telegram guruhda yozilsa telegram guruhda “@geo_codebot” boti qo‘shilishi kerak, bu bot telegram guruhda lokasiya tashlagan har qanday foydalanuvchini telegram id raqami va lokasiya koordinatalarini raqamda yozib qaytaradi. Agar buyurtma telefonda olinsa bu erda shunchaki raqamlar yozish mumkin.

Buyurtmachi ID raqami – bu erda buyurtmachining telefon raqami kiritiladi. Bu kurer manzilni aniqlash kerak bo‘lganda aloqaga chiqishi uchun kerak bo‘lishi mumkin.

Suv soni – bu erda buyurtmaning etkazib berish kerak bo‘lgan suv soni kiritiladi.

Lokasiya koordinatalari – bu erda “@geo_codebot” boti qaytargan koordinata qiymatlari qo‘yiladi. Bu koordinata qiymatlaridan tizim avtomatik manzilni aniqlaydi va buyurtma manziliga o‘zi qo‘yadi. Lokasiya koordinatalari qo‘yilmasa albatta keyingi malumot “Izoh” qo‘yilishi kerak!

Izoh – bu erda manzilni aniqlash va buyurtmani etkazish uchun kerakli malumotlar matn shaklida qo‘yiladi. Masalan manzil, uni topishda mo‘ljal, belgilar, ogohlantirishlar yoki boshqa buyurtma uchun zarur har qanday malumotlar matn shaklida yoziladi.
Ushbu malumotlar to‘liq kiritilgandan keyin **“Buyurtmani rasmiylashtirish”** tugmasini bosish orqali buyurtma tizimga kiritiladi va bu buyurtma ijro uchun kurer ilovasiga ko‘rinadi.



Bajarilgan buyurtmalar davriy hisobotlari:


“ Bajarilgan buyurtmalar davriy hisobotlari”da kiritilgan boshlanish va tugash sanalari davrlari oralig‘idagi bajarilgan buyurtmalar malumotlarini batafsil ko‘rish mumkin.





Kurerlarga berilgan suvlar davriy hisoboti:

“Kurerlarga berilgan suvlar davriy hisobotlari”da kiritilgan boshlanish va tugash sanalari davrlari oralig‘idagi kurerlarga berilgan suvlar hisobini batafsil malumotlarini ko‘rish mumkin.




Suvlar va taralar hisobi


Bu bo‘limda suvlar va taralarni kurer va menejerlarga kirim va chiqim qilish va ularni hisobini ko‘rish mumkin. Bu bo‘limga kirganda quyidagi interfeysni ko‘rishiz mumkin.



Suv to‘la baklar hisobi interfeysi



Taralar hisobi interfeysi





Suv to‘la baklar kirim qilish:

Bu bo‘limda boss yoki menejer suv zapravka qilgan taqdirda, zapravka qilgan suvlar sonini chiqim qilish uchun o‘z hisobiga kirim qilinadi. Etibor bering suv qoldig‘ida suvlar soni nolga teng bo‘lib qolgan bo‘lsa kurerlarga suv chiqim qilib bo‘lmaydi, shuning uchun zapravkadan keyin albatta bu amalni bajarish kerak. Suv soni kiritiladi va “Kirim qilish” tugmasi bosiladi.



Kurerga suv chiqim qilish

Bu bo‘limda kurerga suv chiqim qilanadi. Suv soni kiritiladi, pastki “Qabul qiluvchini tanlang” tanlovidan kurer nomini tanlanadi va «Chiqim qilish” tugmasi bosiladi. Chiqimdan keyin kurer chiqim haqida xabardor qilinadi, dastur interfeysida chiqim malumotlari va saldolar batafsil beriladi.




Kurerdan qaytgan suvni kirim qilish

Bu bo‘limda ish kuni yakunida kurerdan qaytgan suvni qayta kirim qilish mumkin. Suv soni kiritiladi, tanlovdan kurer nomi tanlanadi, “Kirim qilish” tugmasi bosiladi. Natijada dastur interfeysida kirim malumoti va dastlabki va yakuniy qoldiqlar batafsil beriladi va kurerga ham bot orqali xabar beriladi.




Suv to‘la baklar davriy hisobi

Bu bo‘limda boshlanish va tugash davri oralig‘idagi suvlar kirim chiqimi hisobi va dastlabki va yakuniy qoldiqlar haqida batafsil malumot olish mumkin.



Taralarni kirim qilish

Bu bo‘limda boss o‘z biznesiga suv aylanmasi uchun yangi taralar sotib olganda taralarni kirim qilishi mumkin. Buning uchun taralar soni yoziladi va “Kirim qilish” tugmasi bosiladi. Kirimdan keyin kirim soni va tara qoldiqlari malumoti batafsil dastur interfeysiga chiqadi.



Menejerga taralar chiqim qilish

Bu bo‘limda boss menejerga suv aylanmasi uchun taralar chiqim qilishi mumkin. Etibor bering boss va menejer ombori hisobi alohida bo‘lib, bu bir nechta biznes nuqtasi bor biznes egasi (boss) hisobida hisoblar aniqligini olish uchun qilingan. Suvlar soni kiritiladi, tanlovdan qabul qiluvchi tanlanadi va “Chiqim qilish” tugmasi bosiladi.Chiqimdan so‘ng tara qoldig‘i va chiqim malumotlari dastur interfeysida batafsil chiqadi.



Qaytgan taralarni kirim qilish


Bu bo‘limda boss menejer yoki kurerdan qaytgan taralarni kirim qilib olishi mumkin. Taralar soni kiritiladi, tanlovdan kurer tanlanadi va “Kirim qilish” tugmasi bosiladi. Kirimdan keyin dastur interfeysida qoldiq va kirim malumotlari batafsil chiqadi va shu malumotlar kurerga bot orqali xabarda yuboriladi.




Taralar davriy hisoboti

Bu bo‘limda boshlanish va tugash davri oralig‘idagi taralar kirim chiqimi hisobi va dastlabki va yakuniy qoldiqlar haqida batafsil malumot olish mumkin.

Kassa hisobi








Davriy kassa hisoboti

Bu bo‘limda boshlanish va tugash davri oralig‘idagi kassa kirim chiqimi hisobi va dastlabki va yakuniy qoldiqlar haqida batafsil malumot olish mumkin.



Kassa kirim orderi

ëBu bo‘limda kurerlardan savdo pullari yoki menejerdan tushum pullarini qabul qilish mumkin. Summa kiritiladi, tanlovdan kurer yoki menejer tanlanadi, “Kirim qilish” tugmasi bosiladi. Kirimdan keyin kassa qoldig‘i va kirim malumotlari dastur yuziga chiqadi va topshiruvchiga ham bot orqali shu kurer kassa dastlabki va yakuniy qoldiqlari va kirim malumotlari batafsil yuboriladi.



Kassa chiqim orderi


Bu bo‘lim kassa chiqim orderini yaratish bo‘lib, kassadan bo‘lgan har qanday chiqimlar rasmiylashtiriladi. Summa joyiga chiqim summasi kiritiladi, pastida chiqim sababi yoziladi va “Chiqim qilish” tugmasi bosiladi. Natijada kassa qoldig‘i va chiqim malumotlari dastur interfeysida ko‘rsatiladi.



“Kurerlik xizmati uchun to‘lov” (Kassa chiqimi)

Bu bo‘lim kassa chiqimi yani kurerga suv etkazish (kurerlik) xizmati uchun to‘lov bo‘lib, kurer yoki kurerlik qilgan menejerga kurerlik xizmati uchun to‘lovni amalga oshirish mumkin. Summa joyiga chiqim summasi kiritiladi, pastida qabul qiluvchi kurer yoki menejer tanlanadi va “Chiqim qilish” tugmasi bosiladi. Natijada to‘lov amalga oshganligi xabari qaytadi.

Suv narxlarini belgilash





Umumiy narx belgilash

Bu bo‘limda suvlar narxi belgilanadi. Suv narxlarni belgilashda yagona bitta narx belgilash mumkin, bunda xar bir mijozga qancha suv sotilishidan qatiy nazar suv narxi belgilangan narxda sotiladi. Agar shu tarzda umumiy narx belgilamoqchi bo‘lsangiz “Diapazon bo‘yicha narx” bo‘limida “Boshlanish” qismida “1” raqamini quyasiz, “Tugash” qismida “∞” (cheksiz) raqamini qo‘yasiz, “Narx” qismida belgilangan suv narxi quyiladi. “Saqlash” tugmasi bosilsa narxlar saqlanadi.

Diapazonli narx belgilash



Suv narxini belgilashda ikkinchi usul diapazonlar bo‘yicha qo‘ymoqchi bo‘lsangiz, unda avvalambor bu diapazonlarni “Hisoblash davri” qismida “Bir oyda” yoki “Bir yilda” sozlamasini o‘rnatish kerak. Bu ayni bir narxlar diapazoni bir oyda yoki bir yilda amal qilishini anglatadi.



Masalan siz bir oyda sozladiz va narxni quyidagicha belgiladiz.

Bu quydagicha narx diapazonini anglatadi:

Bir oyda sotilgan suv soniga qarab suvlar narxi quydagi tartibda o‘zgaradi:

1 donadan to 50 tagacha = 12 000 so‘mdan,

51 donadan yuqorisi = 11 000 so‘mdan.

Diapazonli narx belgilash suv etkazishda aksiyalar yaratishda qulay. Xuddi shunday davriy diapazonni bir yilga sozlab diapazonli narx belgilash mumkin.




Taralar sozlamasi

Bu bo‘limda biznes egasi (boss) taralarni sotish yoki sotmaslikni belgilaydi. Agar “Tara sotiladimi” qismida “Yo‘q” belgilansa unda mijozlar boti va ilovasida suv sotilganda mijozga “tarani qaytarsizmi yoki sotib olasiz” savoli berilmaydi. Agar Agar “Tara sotiladimi” qismida “Yo‘q” belgilansa unda mijoz boti va ilovasida mijoz “tarani qaytarmayman sotib olaman” ni belgilaganda siz tara sozlamasidagi belgilagan tara narxi bilan tara to‘lov summasini hisoblaydi. Shuning uchun “Tara sotiladimi?” sozlamasida “Ha” ni belgilasangiz albatta pastidagi “Tara narxini belgilash” qismida tara narxini belgilang.



Kurerlar

Bu bo‘limda kurerlarni tizimga qo‘shish, tizimdan o‘chirish, suv etkazib berish xizmati bo‘yicha hisob - kitob, kurer kassa davriy hisoboti, kurer davriy realizasiya hisoboti va kurerga suv chiqarish amallarini bajarish mumkin. Bu bo‘limga kirganda avvalo kurerlar ro‘yxati interfeysi chiqadi.




Kurer qo‘shish

Boss yoki menejer o‘z tizimida kurer qo‘shish uchun “+Kurer qo‘shish” tugmasini bosadi, va “Kurerni qo‘shish yo‘riqnomasi”ni o‘qib chiqib “Jo‘natish” tugmasini bosib, generasiya qilingan havolani kurer telegramiga yoki sms orqali telefon raqamiga jo‘natish kerak bo‘ladi.

“Kurerlik xizmat haqqini (ommaviy) belgilash”

Kurerlarga suv etkazish xizmati uchun haq belgilashda ommaviy, hamma kurerga tatbiq etiladigan narx qo‘yish mumkin yoki aloxida kurer uchun individual narx qo‘yish mumkin. Ommaviy narx kurerlar ro‘yxatiga kirgandan keyin “Kurerlik xizmat haqqini ommaviy belgilash” tugmasi bosiladi. Bu erda ham suv narxini belgilagan kabi umumiy bitta narx yoki aksiya tarzida diapazon shaklida qo‘yish mumkin. Masalan umumiy bitta narx qo‘yishda qo‘ydagicha narx belgilash mumkin:


Bu erda etkazilgan suv soni 0 dan boshlab cheksizgacha umumiy bitta narxda kurerlik xizmati uchun haq hisoblaydi.





“Kurerlik xizmat haqqini (individual) belgilash”

Malum bir kurer nomi ustiga bosilib kurer kartochkasiga kirgandan keyin “Kurerlik xizmat haqqini (individual) belgilash” tugmasi ustiga bosiladi. Natijada quyidagi interfeys namoyon bo‘ladi. Bunda suvlar narxini belgilash kabi ayni bir kurer xizmati narxi belgilash mumkin. Misol uchun quyidagi interfeysda “Eldor Karimov” ismli kurer xizmati uchun 1 dona suv etkazib berish uchun yagona narx 3000 so‘m qilib belgilangan. Bu narxni diapazon shaklida etkazib beriladigan suvlar soniga qarab narxni o‘sib boruvchi qilish mumkin. Bunda suv etkazib berish sonini davriyligi “Bir oyda” yoki “Bir yilda” qilib belgilashga etiborli bo‘lish kerak. Misol uchun keyingi rasmda quyidagicha narx belgilangan:



Bir oyda kurer:
0 dan 2500 tagacha suv etkazib bersa 2000 so‘mdan, 2501 tadan 3000 tagacha suv etkazsa 3000 so‘mdan, 3001 tadan yuqorisiga 4000 so‘mdan.



Bu narxlar misol uchun bo‘lib, narxlarni diapazonini ko‘paytirish narxlarni oshirish yoki tushirish orqali aksiyalar elon qilish mumkin.

Kurerga suv chiqim qilish





Kurerga suv chiqarish ushbu tugma orqali amalga oshiriladi. “Miqdorni kiriting” joyiga kurerga chiqim qilinishi kerak bo‘lgan suv soni yoziladi va “Kurerga suv chiqim qilish” tugmasi bosiladi. Tasdiqlov oynasida “Ha” tugmasi bosiladi. Natijada chiqim malumoti xabari qaytadi. Unda suv chiqim soni va chiqimdan keyingi yakuniy qoldiqlar aks etgan.





Kurer “Kassa davriy hisoboti”

Bu bo‘limda aniq bir davr oralig‘ida kurer kassa kirim chiqim xarakatlari va qoldiqlarini ko‘rish mumkin. Boshlanish va tugash sanalari tanlanadi va “Ko‘rsatish” tugmasi bosiladi. Natijada hisobot natijalari qaytadi.



Kurer suv to‘la baklar hisoboti

Bu bo‘limda aniq bir davr oralig‘ida kurer suv kirim chiqim xarakatlari va qoldiqlarini ko‘rish mumkin. Boshlanish va tugash sanalari tanlanadi va “Ko‘rsatish” tugmasi bosiladi. Natijada suv to‘la baklar harakati hisoboti natijalari qaytadi.




Kurer taralar hisoboti

Bu bo‘limda aniq bir davr oralig‘ida kurer tara kirim chiqim xarakatlari va qoldiqlarini ko‘rish mumkin. Boshlanish va tugash sanalari tanlanadi va “Ko‘rsatish” tugmasi bosiladi. Natijada taralar harakati hisoboti natijalari qaytadi.




Kurer bilan suv etkazish xizmati bo‘yicha hisob-kitob

Bu bo‘limda aniq bir davr oralig‘ida kurer bilan suv etkazish (kurerlik) xizmati bo‘yicha hisob kitoblari va qoldiqlarini batafsil ko‘rish mumkin. Boshlanish va tugash sanalari tanlanadi va “Ko‘rsatish” tugmasi bosiladi. Natijada o‘zaro hisob-kitob natijalari qaytadi.




Kurerni ishdan bo‘shatish

Kurerni ishdan bo‘shatishda asosiy etibor beriladigan holat bu kurer bilan barcha hisob-kitoblarni yopish, kassa, kurerlik xizmati bo‘yicha hisob-kitob, suv va taralar bo‘yicha saldolarni nollashtirish kerak. Chunki “Kurerni ishdan bo‘shatish” tugmasi bosilgandan keyin bu kurer malumotlari bazadan o‘chadi va uni tiklash imkoni bo‘lmaydi. Kerakli kurerni tanlanadi, “Kurerni ishdan bo‘shatish” tugmasi bosiladi. Ogohlantirish xabarini o‘qib “Bo‘shatish” tugmasi bosilganda kurer bo‘shatiladi.




Tizim hisobi


Bu bo‘limda boss tizim bilan o‘zaro hisob-kitob malumotlarini ko‘rishi mumkin. Tizim hisobini to‘ldirish (to‘lov) tarixlari va tizimdan mablag‘ echimi davriy hisobotini ko‘rishi mumkin. Rasmda ko‘rsatilganidek “To‘lov tarixi” va “Mablag‘ echimi” tugmalari stiga bosilsa bir-birini almashtiradi. Kerakli hisobotturini tanlab boshlanish va tugash sanalarini tanlab “Ko‘rsatish” tugmasi bosiladi. Natijada malum davr oralig‘idagi hisobot malumotlari qaytadi.




Hisobni to‘ldirish



“Hisobni to‘ldirish” tugmasini bosganingizda tizimdagi hisobingizni onlayn karta orqali to‘ldirish sahifasi ochiladi. Kerakli to‘lov provayderini tanlang va to‘lov ilovasi orqali to‘lovni amalga oshiring.





Menejerlar

Menejerlar bu xar bir biznes nuqtani ish boshqaruvchisi bo‘lib, bu bo‘limda menejerni qo‘shish, ishdan bo‘shatish, kassa, suv,tara va kurerlik xizmati hisoblari bilan tanishish, boshqarish mumkin.


+Menejerni qo‘shish


Menejerni qo‘shish uchun “+Menejerni qo‘shish” tugmasi bosiladi, generasiya qilingan havoladan nusxa olinib qabul qilinishi kerak bo‘lgan menejerga SMS yoki telegram orqali yuboriladi. Bu havola bo‘yicha bo‘lajak menejer tizim botiga o‘tadi.Tizim ID raqami, parol oladi va shu malumotlar orqali tizimga kiradi.

Menejerlar sahifasi

Asosiy menyudagi menejerlar sahifasiga kirganda menejerlar ro‘yxati chiqadi. Shu ro‘yxatdan kerakli menejer kartochkasiga bosilsa, shu menejer hisobotlari va boshqaruviga o‘tiladi.

Menejer malumotlari (kartochkasi)





Menejer kurerlik xizmat haqqini (individual) belgilash


Menejerlar ham kurerlik xizmatini amalga oshirishlari mumkin agar bunga imkoniyat va vaqt ajratilsa. Va bu bo‘limda menejerlarga kurerlik xizmati uchun alohida (individual) narx belgilash mumkin. Buning uchun “Menejer kurerlik xizmat haqqini (individual) belgilash” tugmasi bosiladi va narxlar yagona narx yoki diapazon shaklida belgilanishi mumkin. Quyidagi rasmda narxlar diapazonli shaklda belgilangan:

Bir oyda:
0 dan 1000 tagacha suv etkazib bersa 2000 so‘mdan,

1001 tadan 3000 tagacha suv etkazsa 2000 so‘mdan,

3001 tadan yuqorisiga 4000 so‘mdan.

Bu narxlar misol uchun bo‘lib, narxlarni diapazonini ko‘paytirish narxlarni oshirish yoki tushirish orqali aksiyalar elon qilish mumkin.



Menejerni ishdan bo‘shatish

Menejerni ishdan bo‘shatishda asosiy etibor beriladigan holat bu menejer bilan barsa hisob-kitoblarni yopish, kassa, kurerlik xizmati bo‘yicha hisob-kitob, suv va taralar bo‘yicha saldolarni nollashtirish kerak. Chunki “Menejerni ishdan bo‘shatish” tugmasi bosilgandan keyin bu menejer malumotlari bazadan o‘chadi va uni tiklash imkoni bo‘lmaydi. Kerakli menejer tanlanadi, “Menejerni ishdan bo‘shatish” tugmasi bosiladi. Ogohlantirish xabarini o‘qib “Bo‘shatish” tugmasi bosilganda kurer bo‘shatiladi.



Menejer davriy kassa hisoboti

Bu bo‘limda aniq bir davr oralig‘ida menejer kassa kirim chiqim xarakatlari va qoldiqlarini ko‘rish mumkin. Boshlanish va tugash sanalari tanlanadi va “Ko‘rsatish” tugmasi bosiladi. Natijada hisobot natijalari qaytadi.



Menejer suv to‘la baklar hisoboti

Bu bo‘limda aniq bir davr oralig‘ida menejer suv kirim chiqim xarakatlari va qoldiqlarini ko‘rish mumkin. Boshlanish va tugash sanalari tanlanadi va “Ko‘rsatish” tugmasi bosiladi. Natijada suv to‘la baklar harakati hisoboti natijalari qaytadi.



Menejer taralar hisoboti


Bu bo‘limda aniq bir davr oralig‘ida menejer tara kirim chiqim xarakatlari va qoldiqlarini ko‘rish mumkin. Boshlanish va tugash sanalari tanlanadi va “Ko‘rsatish” tugmasi bosiladi. Natijada taralar harakati hisoboti natijalari qaytadi.



Menejer bilan suv etkazish bo‘yicha hisob-kitob

Bu bo‘limda aniq bir davr oralig‘ida menejer bilan suv etkazish (kurerlik) xizmati bo‘yicha hisob kitoblari va qoldiqlarini batafsil ko‘rish mumkin. Boshlanish va tugash sanalari tanlanadi va “Ko‘rsatish” tugmasi bosiladi. Natijada o‘zaro hisob-kitob natijalari qaytadi.

Tizim sozlamasi



Telegram tokeni




Agar o‘z biznesingizni maxsus telegram bot va brendini yurgizmoqchi bo‘lsangiz, telegramda @BotFather bot ochib, berilgan bot tokenini shu erda saqlash kerak bo‘ladi. Natijada bu bot faqat sizga buyurtmalarni rasmiylashtiradi. Telegramda @BotFather dan bot ochish va token olishni You Tube ijtimoiy tarmoqdan yoki saytimizda video qo‘llanmasini topishingiz mumkin.

Telegram tokenini saqlash





Telegramda @BotFatherdan olingan bot tokenini saqlash uchun “Tahrirlash” tugmasi bosiladi. “Bot token” yozuvi joyiga olingan bot tokeni yoziladi va “Saqlash” tugmasi bosiladi. Va bu token faqat ayni sizni biznesiz uchun buyurtma qabul qilishni boshlaydi.

Ishchi Telegram guruhi




Ishchi Telegram guruhi — bu biznesning Telegramdagi buyurtma qabul qiluvchi guruhi bo‘lib, ushbu guruhga “Suv kerak” boti qo‘shilganda, bot buyurtmalarni avtomatik ravishda qabul qiladi va ular aynan shu biznesning kuryerlari ilovasida ko‘rinadigan bo‘ladi. Buning uchun **“Yangi ishchi guruhi qo‘shish”** tugmasi bosiladi.





Ishchi guruhni havolasi orqali yoki guruh ID raqami orqali qo‘shish mumkin. Har ikkala holatda ham guruh qo‘shiladi va biznes uchun buyurtmalarni qabul qila oladi.



Telegram ishchi guruhini botga ulash uchun ishchi guruh ichiga kirib /botreg buyrug‘ini yuborish kerak bo‘ladi. Ushbu rasmda bu haqda to‘liq yozma qo‘llanma berilgan.



Faoliyat ko‘rsatish hududini o‘zgartirish

Faoliyat ko‘rsatish hududi bu biznesni geografiy chegaralanish xududi bo‘lib, tanlangan ayni viloyat va hudud (tuman/shaxar) doirasida buyurtma qabul qilinadi. Shuning uchun faoliyat hududini tanlash katta ahamiyatga ega. Tanlash uchun avval viloyat tanlanadi keyin shu viloyatga tegishli shahar yoki tuman tanlanadi, “Yangilash” tugmasi bosiladi va yangi hudud saqlanadi.

PayMe va Click to‘lov tashkilotlari tizimi bilan integrasiya qilish



PayMe va Click to‘lov tashkilotlari tizimi bilan integrasiya qilish uchun ushbu to‘lov tashkilotlari bilan shartnoma tuzilgan bo‘lishi va merchant kabinet login parol olingan bulishi kerak. Ushbu kabinetda texnik integrasiya qilish uchun maxfiy token va kalitlar mavjud. Ana shu maxfiy tokenlar va kalitlar nomi rasmda ko‘rsatilgan kabi bo‘lib, tegishli to‘lov tashkiloti joylariga ularni saqlash kerak. Shunday mijozlar etkazilgan suv to‘lovlarini onlayn karta orqali to‘lay oladi.



Ilova sozlamalari




Bu bo‘limda ilova tilini almashtirish mumkin, ilova interfeys ko‘rinishini qorong‘u (dark) yoki yorug‘ (light) rejimiga o‘tkazish mumkin. Shuningdek ilovaga kirish usullarini PIN kod orqali yoki biometrik malumot orqali kirishga sozlash mumkin.

Xavfsizlik

Bu bo‘limda ilovaga kirish parolini o‘zgartirish mumkin. Buning uchun hozirgi mavjud parol teriladi, pastki qatorlarda yangi parol ikki marta teriladi. “Yangilash” tugmasi bosilganda “Parol muvaffaqiyatli yangilandi” tasdiqlov xabari kelishi kerak.





Onlayn to‘lovlar ro‘yxati

Onlayn tulovlar ro‘yxati saxifasida agar biznes tulov tashkilotlari bilan etkazilgan suv to‘lovini to‘lash uchun integrasiya qilingan bo‘lsa va to‘lov amalga oshirilgan bo‘lsa, shu to‘lovlarni davriy sanalar oralig‘ida ko‘rish mumkin. Bu uchun boshlanish va tugash sanalari tanlanadi va “Ko‘rsatish” tugmasi bosiladi. Natijada to‘lovlar mavjud bo‘lsa onlayn to‘lovlar ro‘yxati qaytadi.



Tizim haqida

Bu sahifada tizim haqida malumotlar bo‘lib, ilova versiyasi va “Aloqa” tugmasi mavjud. “Aloqa” tugmasi bosilganda foydalanuvchi @call_center_SUV_KERAK_bot botiga o‘tadi. Va bu botgi foydalanuvchi o‘zi qiziqtirgan savolini ovozli xabar yoki dumaloq video yoki matn shaklida yuborishi mumkin. Qo‘llab quvatlov xodimlar navbati bilan murojaatga javob yo‘llaydi. Javob shu bot orqali keladi. Shuningdek botga video yoki pdf va boshqa formatli fayl va hujjatlar yuklab yuborish mumkin.


Ulashish



Ulashish tugmasi orqali foydalanuvchi mijoz ilovasini ulashishi mumkin. Bunda shu ulashish havolasi orqali ruyxatdan muvaffaqiyatli o‘tgan xar bir mijoz uchun boss (biznes) tizim hisobiga bonus to‘lanadi. Bonus to‘lovi miqdori o‘zgaruvchan bo‘ladi. Ulashish uchun “Ulashish” tugmasi bosiladi, shunda quyidagicha tanlov xabari chiqadi:

Agar QR kod tanlansa QR havola qaytadi. Agar “Havola orqali ulashish” tugmasi bosilsa ilova havolasi qaytadi va bu havolani SMS yoki telegram orqali ulashish mumkin bo‘ladi.





Ma’lumotlar

Malumotlar bo‘limida ushbu ilovadan foydalanish qo‘llanmasini, maxfiylik siyosati va ommaviy ofyorta bilan tanishish mumkin. Tanishish uchun kerakli xujjat ustiga bosing yuklab oling.